



PAPER

TALABALARNING MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA EGALLAGAN BILIMLARINI ANIQLOVCHI TOPSHIRIQLAR

Baxtiyorova Mo‘minaxon Odiljon qizi ¹ *

¹Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

* baxtiyorova74@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning mazmuni, pedagogik ahamiyati va samarali yo‘llari yoritilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil va amaliy sinov metodlari qo‘llanilib, test topshiriqlari orqali talabalarning milliy qadriyatlarga munosabati, Vatanga sadoqat, ma‘naviy ong va axloqiy fazilatlar darajasi o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda ta‘lim jarayoni bilan bir qatorda, darsdan tashqari faoliyatlar: suhbat, bahs-munozara, badiiy kecha va sayohatlar muhim o‘rin tutadi. Muallif milliy qadriyatlar, oila tarbiyasi hamda komil inson fazilatlarini uyg‘unlashtirish orqali yoshlarni vatanparvar, ma‘naviy yetuk shaxslar sifatida tarbiyalash zarurligini asoslaydi.

Key words: milliy iftixor, ma‘naviy tarbiya, komil inson, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, pedagogik jarayon.

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida milliy g‘oya va ma‘naviy merosning yoshlar tarbiyasidagi o‘rniga alohida e‘tibor qaratdi. U Vatanning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish zarurligini ta‘kidladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish — ularning ma‘naviy, axloqiy, intellektual kamolotida muhim omil hisoblanadi.

Milliy iftixor tuyg‘usi yoshlarni Vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun fidokorona mehnat qilishga undaydi.

Sh.S. Sultanova va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, milliy iftixor tuyg‘usi o‘z millatining qadriyatlarini chuqur anglash, ularni asrab-avaylash va yoshlar ongiga singdirish orqali shakllanadi. Ushbu tadqiqot talabalarning milliy iftixor haqidagi bilim va tushunchalarini aniqlash hamda bu boradagi ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini baholashga qaratilgan.

Compiled on: November 1, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

METODLAR

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil va amaliy sinov usullari qo'llanildi. Nazariy qismda milliy iftixor tushunchasining mazmuni, asosiy komponentlari, shakllanish omillari va pedagogik ahamiyati tahlil qilindi. Amaliy bosqichda esa talabalar o'rtasida test topshiriqlari yordamida ularning milliy iftixor haqidagi bilimlari o'lchandi.

Topshiriqlar mazmuni 10 ta banddan iborat bo'lib, ular talabalarning quyidagi yo'nalishlardagi bilimlarini aniqlashga qaratildi:

1. Milliy iftixorning mazmuni va mohiyati;
2. Milliy iftixor asosini tashkil etuvchi omillar;
3. Millatchilik, kosmopolitizm kabi tushunchalarning farqlari;
4. Oilaning milliy iftixorni shakllantirishdagi roli;
5. Vatan va milliy qadriyatlarning ahamiyati.

Tahlil jarayonida talabalar bilan individual suhbatlar, bahs-munozaralar, badiiy kechalar va sayohatlar orqali ularning hissiy va ma'naviy holati ham o'rganildi.

NATIJALAR

Milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda auditoriyadan tashqarida keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, suhbat, bahs-munozara, badiiy kecha va anjumanlarni rejali tarzda uyushtirish, sayohatlarni tashkil qilishda mazkur vazifa yechimiga bevosita yondashilsa (muayyan mavzu doirasida o'tkazilsa), to'garaklar, sport mashg'ulotlari, musobaqalar, ko'rik-konkurslar, ijtimoiy foydali mehnat va boshqa faoliyat turlarida ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirish mumkin.

Amaliy va nazariy mashg'ulotlarda talaba bilan individual ishlashga kengroq to'xtalamiz.

Milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish mavzusiga oid assiment test savollari:

1. Milliy iftixor – bu:
 - a) milliy qadr-qimmatni yuqori qo'yish;
 - b) milliy manfaatlarni himoya qilish;
 - v) millat tarixi, buguni, uning umumbashariyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, milliy munosabatlar, milliy turmush tarzi, milliy qadriyatlar va ularda ilgari surilgan g'oyalardan faxrlanish, ularni asrash;
 - g) milliy g'urur, milliy o'z-o'zini anglash;
 - d) o'z millatini ulug'lash, madaniy-ma'naviy

qadriyatlarni qadrlash, o'z millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish.

2. Quyidagilar milliy iftixor asosini tashkil etadi:
 - a) milliy his-tuyg'u; milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, vatanparvarlik;
 - b) milliy manfaatlarni boshqa millatlar manfaatlaridan ustun qo'yish;
 - v) milliy his-tuyg'u; milliy shovinizm;
 - g) kosmopolitizm;
 - d) milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash, millatchilik.
3. Millatchilik – bu:
 - a) o'zi mansub millat va milliy manfaatlarni barcha narsadan ustun qo'yish;
 - b) o'zga millatlarni yakson etishga yo'naltirilgan harakat;
 - v) irqiy kamsitish g'oyalarini ilgari suruvchi ta'limot;
 - g) o'z millatiga chuqur ishonch va o'zga millatlarga ishonchsizlik;
 - d) barcha bandlar to'g'ri.
4. Kosmopolitizm – bu:
 - a) o'z Vatani yuzidagi eng muqaddas makon deb bilish;
 - b) yagona Vatan fuqarosi bo'lish majburiyatini zimmaga olmaslik (vatansizlik);
 - v) yashash uchun qulay bo'lgan makonni Vatan sifatida tan olish;
 - g) "jahon" fuqaroligi maqomida yashash;
 - d) baynalminallilik.
5. Milliy iftixor tuyg'usini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar:
 - a) millat tarixi, milliy til, milliy hudud, ajdodlar namunasi, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar;
 - b) milliy madaniyat, millatni ulug'lovchi g'oyalar;
 - v) ajdodlar namunasi;
 - g) malakali pedagoglar imkoniyatlaridan foydalanish;
 - d) ona -Vatan tuprog'i.
6. Oilada farzandlarning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlarini ta'minlovchi vositalar:
 - a) oilaviy qadriyatlar, oila manfaati, oilaning ijtimoiy mavqei;
 - b) milliy tarbiya g'oyalari, sulola sha'ni va ibrati, oila an'analari, oilaviy qadriyatlar;
 - v) ona-onalar namunasi, o'g'itlari, pand-nasihatlari;
 - g) hamma bandlar to'g'ri;

d) ota-onalarning jamiyatdagi mavqei.

7. “Vatan sajdagoh kabi muqaddas” iborasi bayon etilgan asar:

- a) “Avesto”;
- b) “Hadis”;
- v) “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”;
- g) “Qur‘oni Karim”;
- d) “Pedagogika tarixi”.

8. Quyidagi fikr muallifi “Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimo‘slar Shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson erlarga o‘z vatanlarini tashlab, hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz “Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtida cho‘pon bo‘l”, - demishlar” -:

- a) A.Avloniy;
- b) D.K.Ushinskiy;
- v) I.A.Karimov;
- g) Ya.Komenskiy
- d) Fitrat

9. Milliy iftixor tuyg‘usining tarkibiy qismlari:

a) xalq tarixidan habardorlik, millatning o‘tmishi, tarixiga hurmat;

b) ona tilining millat nishoni, g‘ururi ekanligini his qilish;

v) milliy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarni asrash va yanada boyitish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;

g) hamma bandlar to‘g‘ri;

d) milliy madaniyatning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilgan hissa ekanligini anglash.

10. Milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish yo‘llari:

a) ta‘lim jarayonida;

b) tarbiya jarayonida;

v) ommaviy axborot vositalari yordamida;

g) milliy tarix va madaniyatni chuqur o‘rganish bilan;

d) hamma bandlar to‘g‘ri.

Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usining shakllanganligi darajasini xarakterlovchi eng muhim fazilatlar quyidagilardir: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy etuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, ma‘naviy saviya, professional iftixor, milliy va umuminsoniy g‘urur va boshqalar.

MUHOKAMA

Olingan natijalar milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda o‘quv jarayoni bilan bir qatorda, darsdan tashqari faoliyatlarining ham katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Bahsmunozaralar, badiiy kechalar, tarixiy joylarga sayohatlar va sport tadbirlari orqali talabalar o‘z millatining tarixiy, madaniy va ma‘naviy merosiga chuqurroq kirib boradilar. Shuningdek, milliy iftixorni shakllantirishda komil inson fazilatlarini (aql, axloq, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik) singdirish muhimdir. Bu fazilatlar yoshlarning barkamol, sog‘lom va ma‘naviy yetuk insonlar sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish — ma‘naviy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib, u yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, ularning Vatanga sadoqatli, iymonli, halol va fidokor shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ta‘lim muassasalarida milliy iftixorni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada kengaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublika Prezident Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. - ATSTTT, 2017 www.uz.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assamblevasi-20-09-2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 14-son, 230-modda.
3. Imomnazarov M. Milliy ma‘naviyatimiz asoslari. O‘quv qo‘llanma – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 47-53 b.

4. Imomnazarov M.S., Eshmuamedova S. Milliy ma'naviyatimiz asoslari /Tahrir hay'ati H.S.Karomatov va boshq. - T.: Islom universiteti, 2001. – 432 b.
5. Karimova V.M. Milliy istiqlol g'oyasini ta'lim jarayoniga joriy etishning pedagogik hamda psixologik asoslari. – T.: O'AJBNT, 2002. – 26 b.
6. Mamajonova Z.M. Pedagogik mahorat. // Darslik// Toshkent: IDEL PRESS. 2022 yil
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 80 b.
8. Nazarov Q. Qadriyat tizimi: barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari).-T., 1996.- B.1053.
9. Niyozov G.B., Ahmedov Q., Tojiboyev Q. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarning barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. – T.: O'zbekiston, 2010 – 44 b.
10. Pedagogika: ensiklopediya. III jild/ tuzuvchilar: jamoa.– Toshkent: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi ” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 bet.